
Sportning kurash va shaxmat turidan "Shahar prokurori kubogi" uchun musobaqa o'tkazildi

Avval xabar berganimizdek, bugun sportning kurash va stol tennisi turlari bo'yicha «Farg'ona shahar prokurori kubogi» musobaqalariga start berildi. Musobaqa doirasida «Sog'lom hayot uchun 5000 qadam» aksiyasi ham o'tkazildi. Shuningdek, sportchilar hamda shahrimiz yoshlarining bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish maqsadida sportning shaxmat va shashka turidan ham o'rtoqlik musobaqalari tashkillandi.

Tadbir avvalida Farg'ona shahar hokimi Vosiljon Nazarov va shahar prokurori Dilmurodjon Qobulovlar so'zga chiqishib, ishtirokchilarga omad tilashdi. Shundan so'ng, kurash sport turi bo'yicha mahalla va sektor bosqichi g'oliblari bo'lgan o'g'il-qizlar murosasiz bahslarda bellashdilar. Mazkur bellashuvda 8 ta vazn toifasida 120 nafar o'g'il-qizlar orasidan g'oliblar saralandi.

Stol tennisi musobaqasi ham ko'tarinki ruhda o'tdi. Unda 150 nafar havaskor yosh sportchilar qatnashdilar. O'g'il bolalar o'rtasida "Tabassum" MFY vakili Shahzodbek Toshtemirov, qizlar o'rtasida esa "Barkamol" MFY vakilasi Go'zaloy Abduqahhorovalar birinchilikni qo'lga kiritishdi.

G'olib va sovrindorlarni taqdirlash marosimi ham tantanali ruhda o'tkazildi. Sovrindor yoshlarimiz shahar hokimi va prokurori tomonidan diplom va esdalik sovg'alari hamda medallar bilan taqdirlanishdi.

2022-06-27 09:41:55